XALQ DEPUTATLARI SARDOBA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 19-dekabr VII-4-026-9-127-K/24 Sardoba tumani

Sardoba tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni, 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yo‘l xaritasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Respublika aerogeodeziya markazining 2024-yil 18-noyabrdagi Sirdaryo viloyati hokimligiga 04/16-2139-sonli xat orqali yuborilgan ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Sardoba tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil “23” oktabrdagi 1/01-247-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Sardoba tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilgan materiallarga asosan

Sardoba tumani bilan chegaradosh bo‘lgan Oqoltin, Mirzaobod, Xovos tumanlari o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman ma’muriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizig‘i hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yo‘l va boshqa tabiiy va sun’iy obyektlar) saqlab qolinishi bo‘yicha davlat kadastrlar palatasi Sardoba tumani filiali rahbari A.Dehqonboyevga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi KARIMOV ZIYADULLA DANABAYEVICH

Xalq deputatlari Sardoba tumani
Kengashining
2024-yil 19-dekabrdagi
VII-4-026-9-127-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining
T A V S I F I

Jizzax viloyati, Oqoltin va Sardoba tumanlarining chiziqlari kesishgan joy, Chap tarmoq kanali boʻyida joylashgan nuqta boshlangʻich 1 - nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°29'19,831", sharqiy uzoqlik koordinatalari 68°11'34,914").*

A dan B gacha Oqoltin tumani yerlari bilan 1 - 5 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 5 metr masofada Chap tarmoq kanaliga oʻtadi, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda kanalning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 7120 metr masofada M-39 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'15,441", sharqiy uzoqlik 68°16'24,973").*

2 – nuqtadan chegara chizigʻi M-39 avtomobil yoʻlidan Chap tarmoq kanaliga oʻtadi va umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda kanalning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 5966 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°27'18,934", sharqiy uzoqlik 68°20'27,122").*

3 – nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Chap tarmoq kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 7050 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'11,999", sharqiy uzoqlik 68°25'13,116").*

4 – nuqtadan chegara chizigʻi Chap tarmoq kanali boʻyidan zovurni kesib oʻtadi va janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 571 metr masofada ariqqa oʻtib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 450 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 64 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'48,430", sharqiy uzoqlik 68°25'24,876").*

5 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan ariqqa oʻtib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 464 metr masofada zovurni kesib oʻtib, soʻng zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 235 metr masofada zovurni kesib oʻtib, soʻngra janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 206 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali sharqiy yoʻnalishda 30 metr masofada R-33 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 360 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 174 metr masofani oʻtib, Oqoltin, Mirzaobod va Sardoba tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, R-33 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'03,384", sharqiy uzoqlik 68°25'55,150").*

B dan D gacha Mirzaobod tumani yerlari bilan 6 - 9 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

6-nuqtadan chegara chizig‘i avval R-33 avtomobil yo‘lidan Markaziy tarmoq kanaliga o‘tadi va janubiy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 53 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 3868 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3716 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'08,673", sharqiy uzoqlik 68°27'21,668").*

7 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Markaziy tarmoq kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 654 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 381 metr masofada Sardoba suv ombori platinasi bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21'51,852", sharqiy uzoqlik 68°27'56,210").*

8 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali Sardoba suv omborining o‘zani bo‘ylab avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 309 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 465 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 690 metr masofani o‘tib, Sardoba, Mirzaobod, Xovos tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, suv ombor o‘zanida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21'09,617", sharqiy uzoqlik 68°28'13,717").*

D dan E gacha Xovos tumani yerlari bilan 9 - 13 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

9 – nuqtadan chegara chizig‘i Sardoba suv ombori o‘zani bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 3904 metr masofani o‘tib, Markaziy tarmoq kanali bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'05,224", sharqiy uzoqlik 68°28'28,493").*

10 –nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda Markaziy tarmoq kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 6265 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'42,371", sharqiy uzoqlik 68°28'34,184").*

11 – nuqtadan chegara chizig‘i Markaziy tarmoq kanalidan R-32 avtomobil yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 117 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'43,457", sharqiy uzoqlik 68°28'29,455").*

12 - nuqtadan chegara chizig‘i R-32 avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va R-33 avtomobil yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 159 metr masofada Janubiy Mirzacho‘l kanalini kesib o‘tib, Jizzax viloyati, Sardoba va Xovos tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'38,580", sharqiy uzunlik 68°28'27,317").*

E dan A gacha Jizzax viloyati yerlari bilan 13 - 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

13 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3648 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 2881 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'57,063", sharqiy uzunlik 68°23'56,437").*

14 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1925 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 6260 metr

masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'06,022", sharqiy uzunlik 68°18'19,151").*

15 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval gʻarbiy yoʻnalishda 996 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1637 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2950 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 8327 metr, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1208 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'06,818", sharqiy uzunlik 68°08'06,784").*

16 - nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali Janubiy Mirzachoʻl kanalini kesib oʻtib, 18-Janubiy taqsimlagich kanaliga tutashadi va kanalning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 4374 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2382 metr masofani oʻtib, M39 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'05,838", sharqiy uzunlik 68°05'35,933").*

17 - nuqtadan chegara chizigʻi M39 avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 8154 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'22,516", sharqiy uzunlik 68°09'26,590").*

18 - nuqtadan chegara chizigʻi M-39 avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 7010 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'10,862", sharqiy uzunlik 68°12'45,094").*


19 - nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali M-39 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2606 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'10,936", sharqiy uzunlik 68°11'27,771").*

20 - nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 5876 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan boshlangʻich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'19,831", sharqiy uzunlik 68°11'34,914").*

Xalq deputatlari Sardoba tumani
Kengashining
2024-yil 19-dekabrdagi
VII-4-026-9-127-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Sardoba tumani ma’muriy-hududiy chegarasining kartografik chizmasi

Sirdaryo viloyati Sardoba tumanining
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik
CHIZMASI



Shartli belgilar

Sardoba tumanining ma'muriy-hududiy chegara chizig'i

1 *Sardoba tumani ma'muriy-hududiy chegarasining burilish nuqtasi va raqami*